



МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛІКСІЗ БИЛИМЛЕНДИРІҮ

илимий-методикалық журнал № 6/3



**1-ДЕКАБРЬ ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНЕ
МӘМЛЕКЕТЛІК СТАТУС БЕРІЛГЕН КҮН**

Нөкіс - 2022

**2022-жыл ушын
«Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў»
журналына жазылыў баҳасы төмендегише:**

Индекс: 2092

**Жеке пухара ушын бир жылға 90 000 сум,
алты айға - 45000 сўм**

Индекс: 2093

**Кәрханалар ушын бир жылға 100 000 сум,
алты айға - 50 000 сўм**

КК филиал УзНИИПН

р/с 20210000800538464001

КК.Отд. «ИПОТЕКА БАНК» г. Нукус

МФО 00621

ИНН: 200362233



МУГАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҶ



ISSN 2181-7138

№ 6/3 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия аъзалары:
Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Марифжон АХМЕДОВ
Гулзада БАЙМУРАТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Дилдора ДАВРОНОВА
Мәмбет ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Даврон ИСМОИЛОВ
Феруза САПАЕВА
Раънохон ОРИПОВА
Арзы ПАЗЫЛОВ
Джавдод ПЎЛАТОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Саодат ТОШТЕМИРОВА
Нурзода ТОШЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Сурайе ШАРИПОВА
Рухшона ИСРОИЛОВА
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириўшилер:
Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПНИИ
Қарақалпақстан филиалы

Ўзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Мугаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген маглыўматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ АДЕБИЯТ

Shirnazarova Z. A. Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish	6
Ishmatova O. S. Fonetik ritmika maxsus metodikalarining ritmika va logoritmikadan farqli jihatlari	9
Rustamova Z. X. Dialektal korpus yaratishning leksikografik tadqiqi	14
Султанова А. Умумтаълим мактабларида грамматик терминларни қиёсий усулда ўрганиш	17

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Сейтмуратов Қ. Жәдидшиликте сиясий-ағартыўшылық идеялар	22
Сейтмуратов Қ. Жазба саўатлылықты раўажландырыў-дәўир талабы	25
Bayniyazova G. Shayir I.Yusupov qosqlariniń tálím-tárbiyalıq áhmiyeti	29
Тилеумуратова Г. Т. Қорақалпоқ болалар адабиети воситасида ўқувчиларнинг тафаккурини ривожлантиришнинг педагогик имкониятлари	34
Bekmanova G. Kimyo o'qitishda didaktik o'yinli texnologiyalarni qo'llash usullari va vositalari	37
Абидова Н. З. Таълимий инклюзия шароитида касбий-педагогик фаолият хусусиятлари ..	40
Yunusova X. Sh. Inklyuziv ta'lim O'zbekistonda insonparvar ta'lim shakli sifatida	44
Курбанова М. Э. Органик кимё дарсларида педагогик методлардан фойдаланишни ўргатиш	48
Кобилова Ш. Х. Педагогик инновацион таълим кластер асосида халқ таълимида инклюзив муҳитни яратиш юзасидан ижтимоий-педагогик ёндашув	52
Dehqonova M. G'. Bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbga qiziqishini oshirish yo'llari	58
Гаюпова С. Х. Замоनावий талаба шахсини шакллантиришнинг ўзига хос жиҳатлари	61
Sayfullayeva I. Q. Bo'lajak logopedlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari	66
Hayitova Yu. S., Xolmatova G. I. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish texnologiyasi	69
Тиркашов М. С. Эмпирик тушунчалар ва уларни шакллантириш методлари	73
Ibadullayeva Sh. N. Pedagogik desantura- ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorliggini oshirishning innovatsion mexanizmi sifatida	76
Рахманова М. Қ. Талабаларнинг ижтимоий компетентлигини такомиллаштиришнинг ўзига хос жиҳатлари	79
Temirbekova A. O. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish – davr talabi	84
Темирова М. Б. Бўлажак педагогларнинг касбий мобилилигини таъминлашнинг педагогик жиҳатлари	86
Karamatova D. S. Zamonaviy ekologik ta'lim mazmunida integrativ yondashuvni ta'minlash ..	90
Салаева М. С. Педагогнинг ўз-ўзини касбий такомиллаштириши ва ўз имкониятларини рўёбга чиқаришнинг психологик механизмлари	95
Нурманова Н. К. Совершенствование методической подготовки будущих учителей к интегративно-модульному обучению	101
Utebaev T., Sarsenbaeva Z. The significance of learning cultural codes	105

ской точки зрения, способы реализации, основанные на научном и эмпирическом познании, показаны в два этапа.

SUMMARY

The article shows that there are different ways and forms of cognition of the world and, generalizing from a philosophical point of view, the methods of implementation based on scientific and empirical knowledge are shown in two stages.

PEDAGOGIK DESANTURA- TA'LIM KLASTERI ASOSIDA INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNAVOTSIYON MEXANIZMI SIFATIDA

Ibadullayeva Sh.N.

Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, tarbiya, tizimlilik, maqsad, vazifa, o'quv fani, o'qituvchi, bo'sh o'zlashtiruvchi, o'quvchi, tajriba.

Ключевые слова: инклюзивное образование, воспитание, системность, цель, задача, учебный предмет, учитель, свободный ученик, ученик, опыт.

Key words: inclusive education, upbringing, systematicity, goal, task, educational subject, teacher, free learner, student, experience.

Yangi O'zbekistonimizning ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar asosida jamiyatda o'qituvchilik kasbining mavqeini yanada mustahkamlash, sohaga ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsiyalarni jalb qilish, ta'lim-fan ishlab chiqarish izchilligini ta'minlash, ta'limning asosiy va yordamchi tuzilmalarini zamonga mos holda takomillashtirish, ta'lim jarayonida o'zini namoyon qila olgan o'quvchilar bilan ish tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab olgan.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ushbu islohotlarni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ilmiy-pedagogik muammo o'zining innovatsion xarakteri, xorijiy tajribalardan muvaffaqiyatli o'tgani va ta'lim turlari shu jumladan, ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlay olishi bilan ham mamlakatimiz ta'lim tizimiga mosligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunga kelib, jahonda yangiliklarga va asl texnologik yechimlarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda integratsiyalashuv jarayonining yangi, zamonaviy usullaridan biri sifatida ommalashib borayotgan klaster yondashuvining ilmiy-pedagogik jihatlarini tahlil qilish, uning samarador usul ekanligini ilmiy-nazariy asoslab berish, amaliyotga joriy etish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kun pedagogikamizning bosh masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tizimli ishlar ushbu tushuncha muayyan subyektlarning o'zaro hamkorlik aloqalarini tizimli shakllantirish va ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida birgalikda faoliyat yuritadigan yagona tashkiliy tuzilmaga birlashishini anglash jarayonini takomillashtirishni ko'rsatmoqda.

Klaster doirasida bir qancha subyektlarni o'zaro hamkorligini ta'minlash murakkab, ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy jarayon. O'zaro bog'liq bir qancha faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida yig'ish aniq hisob-kitoblarni va ilmiy yechimlarni, yakuni kafolatlangan loyihalarni talab qiladi va shu bilan klaster subyektlarining ishonchini qozonadi.

Klaster muayyan obyektlarning bir maqsad yo'lida birlashish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotchilar klaster haqida fikr bildirib, unda butun qismlar yig'indisiga teng emas, u qismlar yig'indisidan ko'p ham, kam ham emas, bu sifat jihatdan farq qiladi. Shuningdek, qismlarni uyg'unlashtirishning yangi prinsipi ham mavjud bo'lib, bu unga kiritilgan qismlarning umumiy rivojlanish sur'atini aniqlashdan iborat. Tashkilotning evolyutsiyasida ijtimoiy, geosiyosiy yaxlitlashuvni yaratish uchun to'g'ri yondashuvlarni ishlab chiqish katta ahamiyatga ega, deydi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topishni o'zining asosiy strategik tadqiqot yo'nalishlarini ishlab chiqish zarur. Bu vazifalar pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shuningdek, pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi mavjud bo'lgan muammolar va ularga yechim topishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi tarqoqlik bugungi kunda uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini talab etmoqda.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot joylari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi jihatini ochib beradi. Jumladan, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash jarayonida amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Shuni ta'kidlash joizki, jamiyatimizning bugungi taraqqiyot bosqichida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ta'limga ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta'minlaydigan, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy-metodik tashkilotlarda to'plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlarni ta'lim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida namoyon bo'lishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdagi eng muhim tizim sifatida ko'rilmogda. Bunda ta'lim tashkilotlari va jamiyat boshqa manfaatdor tomonlarining o'zaro uzviy va uzluksiz hamkorligini ta'minlash, ta'lim jarayonining mahsuli – har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni tayyorlash va jamiyatga foyda keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, ma'naviy, iqtisodiy imkoniyatlar yaratilgan.

Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida "Pedagogik desantura" professionallar klubi tashkil etildi. Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Pedagogika fakulteti" Maxsus pedagogika yo'nalishi 1-kurs volontyor desant talabalar klub rahbari, birlashtirilgan trener o'qituvchilar tomonidan saralab olindi. Ushbu klubni ochishdan ko'zlangan maqsad, o'quv jarayonini diversifikatsiyalash uchun talabalarning klaster obyektlarida dars o'tish tajribasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ish samaradorligini oshirish uchun "Pedagogik desantura" professionallar klubi ish faoliyatining tamoyillari ishlab chiqildi:

- Ixtiyoriylik tamoyili
- O'ziga ishonch tamoyili
- O'zaro ishonch tamoyili
- Jamoaviy harakat tamoyili
- Tezkor diagnostika tamoyili

- Aybdor qidirmaslik tamoyili
- Manzilli zabt etish tamoyili
- Qulay pozitsiya tamoyili

Inklyuziv ta'lim tizimida innovatsion klasteri joriy etish natijasida biz ta'lim tizimida, maktab o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirish yuzasidan har tomonlama sezilarli darajada natijalarni ko'rishimiz mumkin.

“Pedagogik desantura” professional klubi ish faoliyati o'z yo'l xaritasiga ega.

1. Talabalarni kuzatish
2. Diagnostika qilish
3. Amaliy mashg'ulotlarda imitatsion muhit yaratish
4. Maktab o'qituvchisiga biriktirish
5. Dars o'tish (feedback)

Desant talabalarimiz dars jarayonini avval kuzatib “Maxsus pedagogika” kafedrasida professor-o'qituvchilari bilan birgalikda tahlil qilib olishadi. Har bir desant talaba o'z didaktik sandig'iga ega bo'lib dars jarayonida tayyorlagan metodikalardan imkoniyati cheklangan bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib foydalanishi talab etiladi. Sinfidagi barcha imkoniyati cheklangan hamda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar desant talaba nazaridan chetda qolmaydi. Chunki bu o'quvchilardagi kichik ijobiy o'zgarish ham bizni maqsad sari yetaklovchi kuch sanaladi. Biz qilgan ish alohida yordamga muhtoj o'quvchilarimiz oddiy, passiv ishtirokchi sifatida emas balki faol o'quvchi bo'lib faol o'quvchi bo'lib ertangi ta'lim bosqichiga qiyinchiliklarsiz o'ta oladigan bo'lishi kerak. Mavzularni faol o'zlashtira olgan shaxs keyingi oliy ta'lim jarayonida birinchidan, akademik bilimlarga ega bo'la oladi. Ikkinchidan, o'ziga bo'lgan ishonch ortganligi sababli psixologik jihatdan ongini tayyorlab olgan bo'ladi. Uchinchidan, boqimandalik hissini yengib o'tib, hayotda o'z o'rnini topishga harakat qila oladi. Hozirgi kunda zamonaviy kadrlarga qo'yiladigan talablardan biri transformatsion faoliyat asosida o'quv jarayonlarini olib borish hisoblanadi.

Transformatsion faoliyatda mavzu yoki maqsadimiz o'zgaraydi balki ma'lum bir elementi o'zgaradi xolos. Misol uchun, o'qituvchi darsni olib boorish uchun ma'lum bir metodikani tayyorlab keladi lekin o'quvchining beqaror holati bu metodikaning ishlamay qolishiga olib kelishi mumkin. Bu holat dars maqsadiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak ya'ni transformatsion faoliyat o'quvlari, ko'nikmalari talab etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, shu usulning o'zida ma'lum bir elementni o'zgartirish kerak bo'ladi.

“Pedagogik desantura” professional klubi yana bir muhim jihati shundaki, talaba o'zini o'qituvchi o'rni bo'la oladi. O'tilishi kerak bo'lgan mavzu yuzasidan 1 hafta oldin tanishgan bo'lishi kerak, dars uchu kerak bo'lgan metodikalar va resurslarni tayyorlab oladi, harakat nuqtasini taqsimlab oladi, dars yakunlangandan so'ng talabalar o'zaro muhokama jarayonini olib boradi.

15-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilariga 3 chorakning 3-oyidan 4-chorak yakuniga qadar “Maxsus pedagogika” kafedrasining 21 nafar desant talabalari biriktirildi. Har bir talaba boshlang'ich sinfdagi imkoniyati cheklangan yoki bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilardan 1 nafarini o'ziga biriktirib oldi va dars jarayonida har tomonlama shu o'quvchiga ko'mak berdi. Desant talabalar biriktirilishidan avval 10 nafar imkoniyati cheklangan yoki bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilardan 3 tasi dars jarayonlarida

she'r yodlay olmagan, 4 nafar o'quvchining nutqida nuqsoni mavjud edi qolgan 3 nafar o'quvchi tortinchoq, o'z fikrini erkin bayon eta olmas edi.

Desant talabalar ko'magidan so'ng, 3 nafar o'quvchi 2-3 tadan she'rni yod oldi. 4 nafar o'quvchining lug'at boyligi oshdi, bog'langan nutqi shakllandi, ichki va tashqi nutqi rivojlandi. 3 nafar o'quvchi o'z hohishi bilan qo'l ko'tarib fikrini bayon eta olishga o'rgandi. O'ziga bo'lgan ishonchi ortdi.

Bundan ko'rinib turibdiki, individual kasbiy rivojlantirish dasturi asosida talabalar o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlandi.

Adabiyotlar:

1. Қодирова, Ф. У., & Кенжаев, Н. У. (2020). Инклюзив таълим шароитида қар ва заиф эшитувчи болаларнинг ўқишига таъсир этувчи омиллар. Academic research in educational sciences, (3), 904-910.
2. Ibadullateva, Sh.N. (2022). Ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash. Magistrlik dissertatsiyasi.
3. Qodirova F.U. Maxsus ta'lim o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash omili sifatida. "Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar". O'zbekiston res'ublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. ToshDU. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, ToshDJTI. Xalqaro konferentsiya materiallari. Toshkent, 2017. – B. 157-159.
4. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash va jamiyatga uyg'unlashtirish muammolari va ularning samarali yechimlari.// "S'etsial' naya inklyuziya: novqe orientir q sotsializatsii detey". Res'ublika bolalar ijtimoiy moslashuvi Markazi. Xalqaro konferentsiya materiallari to'lami. Toshkent, 2017. – B89-91.
5. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o'rni.// Maktab va hayot. -Toshkent, 2018. -№ 7. – B. 12-15. (13.00.00. № 2).

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash va uni amaliyotga tadbiiq etish orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilarning boshqa o'quvchilar singari ta'lim olishda teng xuquqli ekanligini isbotlaydi. Bunda ularga pedagogik yordam berishning samarali usullaridan foydalanish tavsiya etiladi

РЕЗЮМЕ

В данной статье доказывается, что учащиеся с ограниченными возможностями здоровья имеют такое же право на образование, как и другие учащиеся, путем выявления действенных факторов повышения эффективности инклюзивного образования на основе образовательного кластера и реализации его на практике. Для них рекомендуется использовать эффективные методы педагогической поддержки.

SUMMARY

This article proves that students with disabilities have the same right to education as other students by identifying the effective factors of increasing the effectiveness of inclusive education based on the educational cluster and putting it into practice. It is recommended to use effective methods of pedagogical support for them.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ

Рахманова М.Қ.

Чирчиқ давлат педагогика университети н.ф.ф.д.(PhD)., доцент

Таянч сўзлар: педагогик омил, педагогик шарт-шароит, ижтимоий тарбия, фуқаролик позицияси, ўзаро мулоқот алмашинуви, ижтимоий коммуникация.

Ключевые слова: педагогический фактор, педагогические условия, социальное воспитание, гражданская позиция, обмен общением, социальная коммуникация.

Key words: pedagogical factor, pedagogical conditions, social education, civic position, exchange of communication, social communication.